

**O'ZBEKISTONDA AHOI FAROVONLIGINI OSHIRISH AMALIYOTI VA
RIVOJLANISH YO'NALISHLARI**

Tuxtárova Feruzaxon Yuldashevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar kafedrası

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholi daromadlarini oshirishning asosiy usullari haqida bayon qilingan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hamda jahonning ilg'or rivojlangan mamlakatlarining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan tajribalari yoritilgan. Iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb omili sifatida kambag'allik darajasi va aholi turmush darajasi ko'zda tutilgan va tahlil qilingan.*

**DEVELOPMENT TRENDS AND PRACTICE OF IMPROVING POPULATION
WELFARE IN UZBEKISTAN**

Abstract: *This article describes the main ways to increase the income of the population. The reforms carried out in our country and the experiences of advanced developed countries of the world aimed at increasing the level of well-being are highlighted. The level of poverty and the standard of living of the population are considered and analyzed as the most relevant factors of economic development.*

**ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ПРАКТИКА ПОВЫШЕНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ
НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация: *В данной статье описаны основные пути увеличения доходов населения. Освещены реформы, проводимые в нашей стране, и опыт передовых развитых стран мира, направленные на повышение уровня благосостояния. Уровень бедности и уровень жизни населения рассматриваются и анализируются как наиболее важные факторы экономического развития.*

KIRISH

Aholi farovonligi va turmush darajasi sifatini yaxshilash davlatning oliy maqsadi. Bu maqsadga erishishda aholi daromadlari asosiy rol o'ynaydi. Aholi turmush darajasi - aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasidir.

Farovonlikning eng quyi darajasi- daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Iqtisodiy o'sish daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda asta-sekin o'sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko'payib borsa-da, har doim ham daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Har bir mamlakat daromadlar tengsizligini bartaraf etish uchun o'z iqtisodiy holatidan kelib chiqib yondashadi. Bularga davlat tomonidan ajratilayotgan ijtimoiy to'lovlar, pensiya, ijtimoiy nafaqalar misol bo'la olishi mumkin.

Muhokama va natijalar

Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'llari:

- narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi tufayli daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish;

- ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish;

- aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash;

- ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish;

- aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash;

Mamlakatimizda aholini turmush farovonligini oshirish, ayniqsa, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab loyihalar, dasturlar ishlab chiqilib, tadbirkorlik faoliyatini boshlash niyatida bo'lgan fuqarolar uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

O'tgan qisqa davrdagi islohotlar, ayniqsa, tadbirkorlik rivojiga qaratilayotgan e'tibor hayotimizning barcha jabhalarida yangilanish va tub o'zgarishlarga zamin hozirladi. Jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy manzarasi butunlay o'zgardi.

"Kambag'al va ishsiz aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan chora- tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqildi. Qaror loyihasida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga hamda tadbirkorlikka o'qitishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi umummilliy tizim joriy etiladi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida joylashgan "Ishga marhamat" monomarkazlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tuman (shahar)larida joylashgan ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish markazlari;

- Toshkent shahrining tumanlarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ishsiz yoshlar, xotin-qizlar hamda o'z malakasini oshirmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun tashkil etiladigan qisqa muddatli kasb-hunarga o'qitish kurslari;

- mahalla guzarlarida, mahalla hududlaridagi o'quv muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, tashabbuskor tadbirkorlik subyektlari binolarida, boshqa bo'sh turgan joylarda ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarlarga o'qitish markazlari huzurida tashkil etilgan mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etiladi.

Shuningdek, Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda, BMT Taraqiyot Dasturi va Jahon bankining 10 nafar ekspertlari Kambag'allikni qisqartirish dasturini ishlab chiqish uchun jalb etilgan. Bunga jon boshiga oylik daromadi \$50 dan oshmaydigan 5 mln aholi qatlamini, shu jumladan, 3 mln yoshlarning mehnat qobiliyatini ishga solish orqali erishish belgilanmoqda.

O'zbekistonda kambag'allikka tushish xavfi mavjud bo'lgan 4,5 mln aholi daromadlarini oshirish rejalashtirilmoqda. Bu haqida "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirishga qaratilgan prezident qarori loyihasida keltirilgan.

Xususan, jon boshiga oylik daromadi \$50 dan oshmaydigan 5 mln aholi qatlamini, shu jumladan, 3 mln yoshlarning mehnat qobiliyatini ishga solish orqali kambag'allikdan olib chiqish belgilandi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 5099-son Farmoni imzolandi.

Natijada 2019 yil 24- iyulda Mamlakatimiz poytaxtida birinchi IT Park ochildi va tez vaqt ichida IT Park 28 ta yangi startap ko'rinishidagi birinchi mevalarni berdi, axborot texnologiyalari sohasida o'nlab loyihalarni yaratdi, shuningdek yoshlarni rag'batlantirish, ushbu sohada qiziqishi va aholida kompyuter savodxonligini rivojlantirish imkoniyatini yaratdi.

IT Park - bu kompaniyalar uchun istiqbolli boshlang'ich loyihalarni, tashqi iqtisodiy zonani, shu jumladan ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan integratsiyalashgan holda ishga tushirish va bozorga chiqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan obye'ktlar, bino va inshoatlar majmuasi.

IT sohasida va iqtidorli insonlar buxgalteriya hisobi, yuridik, marketing va ta'lim orqali o'z g'oyalarini haqiqiy biznes loyihalarga aylantirish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'ladigan joy bo'lib qoldi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi ish o'rinlarini ko'paytirish va kambag'allikni qisqartirishdir.

Bu boradagi manzilli ishlar natijasida o'tgan yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi. 1 million aholi kasb-hunarga o'qitilib, ish boshlashiga ko'maklashilib, kambag'allikdan olib chiqildi. Shu davrgacha 200 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi, 10 mingta korxonaning faoliyati kengaytirildi, 11 mingta korxonalar quvvati tiklandi.

Davlatimiz rahbari hukumatimizga bunda e'tibor qaratish zarur bo'lgan yo'nalishlarni ko'rsatib o'tdi. Avvalo, oilaviy tadbirkorlikka yanada turtki berish maqsadida moliyaviy ko'mak ko'lami kengaytirilishi nazarda tutildi. 2022-yilda bu maqsadga qariyb 10 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratilgan edi. 2023yilda oilaviy tadbirkorlik dasturi uchun esa 12 trillion so'm yo'naltirildi. Bunday kreditlarning eng yuqori miqdori ham oshiriladi. Bandlikni ta'minlashda yana bir katta manba bu -

dehqonchilikdir. Ikki yil ichida aholiga 200 ming gektardan ziyod yer bo'lib berildi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari xalqimizga Murojaatnomasida tuman va shaharlar iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratilishini aytgan edi. To'rtinchi va beshinchi toifalarga kirgan tumanlarda kambag'allikni qisqartirish ishlari ham yangicha tashkil qilinishi belgilab berildi. Unga ko'ra, birinchi bosqichda "temir daftar", "yoshlar daftari" va "ayollar daftari" yagona tizimga birlashtirilib, har bir oilaning yagona raqamli pasporti ishlab chiqiladi.

Kambag'allikni qisqartirish va Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish rejalashtirilgan. Dasturda quyidagilar aks etadi:

- Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan har bir nogironligi bo'lgan shaxslarni ishlashi mumkin bo'lgan kasblari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron tarzda "Bandlik xizmati" axborot tizimiga integratsiya qilish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan tashkilotning xodimga ish haqi hisoblanganligi va daromad solig'i to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda Yagona milliy mehnat tizimidagi mehnat shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish;

- 12 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish uchun kasbiy ta'lim muassasalariga imtiyozlar berish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni tadbirkorlikka jalb etish va o'zini o'zi band qilishi uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish.

Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish belgilangan. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizi ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olinadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qiladigan bo'lsak, bozor iqtisodiyotida ko'pchilikda bo'lgan mulk -ish kuchininig ahamiyatini beqiyos oshirib yuboradi. Malakali ishchi kuchi ishlab chiqarishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Ishchi kuchi inson omili bo'lib, uni rivojlantirishga mablag' qo'yish mablag'larni joylashtirishning eng qulay vositasiga aylanadi.

Respublikamiz aholisini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirib borish hozirgi sharoitidagi eng asosiy masalalardan biri sanaladi. Chunki mamlakatda olib borilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va tadbirlar inson manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Shuni hisobga olib, respublikamizda aholining kam ta'minlangan, mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan qismini, ishsizlar, nogironlar, yosh bolalar, talabalar, qariyalar, boquvchisini yo'qotganlarni ijtimoiy himoyalash asosiy maqsad qilib qo'yilmoqda. Aholini ijtimoiy himoyalash aniq va maqsadli yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish-yangi ijtimoiy

himoyalash tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ham kengaytirilishi lozim. Bu:

- odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faolashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish (har bir kishining iqtisodiy erkinligini shakllantirish); - aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz farqlarga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish; - qashshoqlikka qarshi kurash, eng muxtoj aholi qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishni kuchaytirish, demakdir. Aholini turmush darajasini o'rganish oila hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinadiki, aholini turmush darajasini o'rganish, statistik baholash murakkab bo'lib, maxsus statistik usullardan: uy xo'jaligi byudjetini tekshirish, aholini pul daromadlari va xarajatlari balansidan foydalanib olib boriladi. O'zbekistonda o'ziga xos mahalla instituti orqali amalga oshirilayotgan maqsadli ijtimoiy ta'minot tizimi, garchi ayrim kamchiliklarga ega bo'lsada, boshqa har qanday tizim bilan solishtirganda yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda. Ushbu tizimning uzluksiz monitoringini o'tkazish va uning samaradorligini oshirish uchun mos keluvchi zarur o'zgartirishlarni kiritish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017- yil 24- maydagi PQ- 3001- son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi 12.06.2023 yildagi PF-93-son farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-306 son qaror
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi 11.08.2020 yil PQ-4804-sonli Qarori
6. Shahbaz, M., Shamim, S. A., & Aamir, N. (2010). Macroeconomic environment and financial sector's performance: econometric evidence from three traditional approaches. *The IUP Journal of Financial Economics*, 1, 103-123.

7. Nielsen, F. (1994). Income inequality and industrial development: Dualism revisited. *American Sociological Review*, 654-677.

8. Abdurahmanov Khamid Khudaybergenovich & Ibragimov Lutfullo Ziyadullaevich, 2015. "Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan" SEA - Practical Application of Science, Romanian Foundation for Business Intelligence, Editorial Department, issue 7, pages 363-368